

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish va ularni faoliyat jarayonlarida rivojlanishini ta'minlashning akmeologik omillar

Zarnigor Zoxidjon kizi Jurabayeva
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Quyudagi keltirib o'tilgan tadqiqot natijalariga ko'ra bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yoshi va pedagogik qobiliyatlarning rivojlantirish darajasi o'rtasida sezilarli to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik jarayonlarini o'rganish natijasida ayrim kamchililar aniqlanmoqda. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi va ularning asosiy ta'limi o'rtasida bog'liqlikni to'g'ridan to'g'ri amalga oshirish va kutilgan natijalarni kafolatlashga yordam beradi. Oliy ma'lumotli bilimga ega bo'lish va bu kabi ko'nikmalarni egalash bo'lajak pedagoglarda kasbiy layoqatga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, bu orqali o'qituvchilik qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini statistik jihatdan ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: texnologiya, kasbiy layoqat, qobiliyat, akseologik qadryatlar, akmeologiya, muammo, faoliyat, tipologiya, kommunikativlik

Acmeological factors of improving the pedagogical skills of future primary school teachers and ensuring their development in the process of activity

Zarnigor Zhodjon kizi Jurabayeva
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: According to the results of the research mentioned below, as a result of studying the processes of a significant direct relationship between the age of today's primary school teachers and the level of development of pedagogical skills some shortcomings are being identified. This will help to directly implement the connection between the level of development of pedagogical skills of primary school teachers and their basic education and guarantee the expected results. Having a higher education and acquiring such skills directly affects the professional competence of future pedagogues, through which we statistically see a positive effect on the development of teaching ability a believer

Keywords: technology, professional ability, ability, axeological values, acmeology, problem, activity, typology, communicative

O'zbekiston Respublikasi ta'limi bugungi rivojlanayotgan ta'lim tizimining hozirgi bosqichda bo'lishi kerak. mamlakatning jadal suratlar bilan rivojlanishini, shuningdek yangi innavatsion texnologiyalarni joriy etish bu orqali iqtisodiyot va ijtimoiy hayotning asosiy sohalari, yo'nalishlarini bilim ishlab chiqarish,

Natijada esa yangi texnologiyalar va ilg'or tajribalar, jaxon miqyosida fan, ta'lim va san'at yo'nalishi bo'yicha etakchi o'rinlarni egallashga amaliy harakat qilish, bu orqali biz mamlakatni uzoq udatli istiqbolli rejalarini tuzushimiz va yoshlarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga erishamiz.

"Bizning yangi maktab" bugungi kunda milliy ta'lim tizimini belgilangan strategiyasi va tashabbusiga ko'ra, ta'lim tizimida malga oshiriladigan isloxotlarning bosh bo'g'ini bu boshlang'ich sinf o'quvchilari va ular bilan faoliyat olib boruvchi pedagoglar hisoblanadi.

Chunki boshlang'ich sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilar yuqori texnologiyalardan foydalanish orqali raqobat dunyosida sodir bo'layotgan hayotiy vaziyatlariga tayyor bo'lishlari mumkin va bu orqali o'quvchilar o'z qobiliyatlarini kashf qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Bu kabi natijalarga erishish jarayonlarida asosiy rol boshlang'ich sinf o'qituvchi pedagoglarning zimmasiga ma'uliyatni yuklaydi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan vazifalarni ajratib olishi va o'z oldida turgan vazifalarni mas'uliyati va murakkabligini, pedagogik faoliyat jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichiga o'tkazish va pedagogik qobiliyatlarni yuqori darajada rivojlantirishning ko'nikma va malakalarini o'zida shakillantirishi kerak. Oldimizda turgan muhim vazifalaridan biri bu boshlang'ich sinf o'qituvchilari va pedagog hodimlarining pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish faoliyatining zaruriyati va bunday faoliyatlarni amalga oshirishning akmeologik texnologiyani ishlab chiqish va amalyotga tadbiq etish. Biz taqdim etayotgan yondashuvlarni tadqiq etish jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlariga akmeologik yondashuv jarayonlarini o'rganish lozim. Dastlab pedagog hodimlarning pedagogik qobiliyatlarini o'rganish va tadqiq etish muammosini o'rganish, tahlil qilish orqali shakillanadigan pedagogik qobiliyatlarining mohiyati va mazmuniga oid tadqiqotlarni A.Disterveg, P.G.Redkin, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiyning asarlari ham o'rganishimiz mumkin.

Pedagogik faoliyatlari jarayonida bir qator mutaxasislarni asarlarini ham tahlil qilib o'rganib chiqamiz. Pedagog mutaxasis Ananyev o'z asarlarida va qarashlarida boshlang'ich sinf o'qituvchisi va pedagog hodimlarining pedagogik qobiliyati

muammosini birinchi bo'lib ilmiy asoslagan va o'z fikrlari orqali boshlang'ich o'qituvchisining faoliyat jarayonlarini muammoli tomonlarini tahlil qilgan.

Bundan tashqari yan o'qituvchilik qobiliyatlarini namoyon qilinishida duch kelinadigan muammolarini N.D.Levitov, F.N.Gonobolin, V.A.Krutetskiylar ham umumiy struktura asosida ta'riflashga harakat qilishgan. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qitish qobiliyatlarini asosiy tarkibiy struktura va tuzulmasini V.A.Slasteninining ilmiy tadqiqotlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini shakllantirishda biz birinchi navbatda ularning kasbiy faoliyat samaradorligi, kasbiy qobiliyatlarini rivojlanishni ta'minlaydigan shaxsiy fazilatlarini, xususiyatlari shakllantirishning tizimli loyihalarini ishlab chiqish. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'ziga xos pedagogik qobiliyatini rivojlantirish jarayonining asosiy mezonini bu kasbiy faoliyatning mahsuldorligi bo'lib, bu orqali ularning natijasi ya'ni, bitiruvchilarining boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishga ijodiy tayyorgarlik jarayonlarida namoyon bo'ladi.

Pedagogik faoliyat jarayonlarida pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirish bir qator akmeologik omillarning kuchli va tizimli ta'siri bilan amalga oshiriladi. Bu kabi faoliyatlarni amalga oshirish va bu orqali Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatini rivojlantirishning akmeologik texnologiyalarni ishlab chiqish va yuzaga keladigan muamoli vaziyatlarni tahlil qilish bu amali jarayonlarda turli yuzaga keladigan vaziyatlarni va omillarni hisobga olish orqali bu jarayonlarning samaradorligini taminlay olamiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish va ularni faoliyat jarayonlarida rivojlanishini ta'minlaydigan akmeologik omillar orqali quyudagi qobiliyatlar va ular o'rtasidagi bog'liqlik eksperimental ravishda yuzaga chiqadi:

1. kasbiy faoliyat motivatsiyasi,
2. kasbiy yo'nalish,
3. o'z-o'zini tarbiyalash,
4. o'zini o'zi tashkil etish,
5. o'zini o'zi qadrlash
6. shaxsning tipologik xususiyatlari. ,
7. kommunikativ faollik,
8. empatiya darajasi,
9. kasbiy faoliyatga qadrlil munosabat,
10. talabalar bilan mos pedagogik munosabatlar o'rnatish qobiliyati.

Pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishning akmeologik darajasiga ega, kasbiy pedagogik faoliyatning eng yaxshi motivatsion kompleksiga ega bo'lgan boshlang'ich

sinf o'qituvchilari kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ta'lim va kognitiv motivlarini shakllantirish bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshirishlari aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зимина, И. Театр и театрализованные игры // Дошкольное воспитание. – 2005. - № 1.
2. Цапкова, Ю. А. Развитие речи детей младшего дошкольного возраста в процессе театрализованной деятельности // Педагогическое мастерство: материалы междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2012 г.). – М., 2012.
3. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
4. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
5. Yo'ldosheva, M. S. Q., & Adashaliyeva, Z. S. Q. (2023). Mehnat darslarida ta'lim jarayonining tashkil etishning pedagogik texnologiyalari. *Science and Education*, 4(2), 1026-1029.
6. Oribboyeva, D. D., & Botirova, Z. (2024). Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish xususiyatlarining rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 541-544.
7. Orifboeva, D. D. (2017). O'RTA TA'LIM MAKTABDA TA'LIM-VA KOGNITIV JARAYONINI OPMAMLAYTIRISH. *Yosh olimlar forumi*, (6(10)), 1320-1323.
8. Ориббоева, Д. Д., & Мирзаахмедова, Д. М. (2024). Болаларда ижтимоий кўникмаларни ривожлантиришнинг аҳамияти. *Science and Education*, 5(2), 595-599.
9. Xalimjanovna, A. M. (2022). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS OF PREPARING CHILDREN FOR SOCIAL LIFE IN DISABLED FAMILIES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 2(5), 39-42.
10. Xalimjanovna, A. M. (2022). Raising a Child and Preparing Him for Social Life in the Works of Our Great Scientists. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(5), 38-41.
11. Asranbaeva, M. H. (2020). CHARACTERISTICS OF FORMING MOTIVES OF LABOUR ACTIVITIES IN AN INCOMPLETE FAMILY. *Theoretical & Applied Science*, (1), 121-123.
12. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.

13. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.

14. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.